“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ma'muriy-huquqiy ta'minlashning ayrim masalalari

Lola Radjapova,
IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasi boshlig‘i
yu.f.f.b.d., dotsent
e-mail: lolaradjapova@gmail.com

Аннотация. Maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ma'muriy-huquqiy ta'minlash tushunchasi, normativ-huquqiy asos va mexanizm unsurlari birligida tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlardagi qarashlar umumlashtirilib, amaldagi muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. ichki ishlar organlari, xodimlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, ma'muriy-huquqiy ta'minlash, ma'muriy-huquqiy mexanizm, ijtimoiy kafolatlar, davlat xizmati, huquqiy tartibga solish.

Аннотация. В статье вопрос административно-правового обеспечения социально-правовой защиты сотрудников органов внутренних дел анализируется в единстве понятия, нормативно-правовой основы и элементов механизма. Обобщаются научные подходы, выявляются проблемы действующего механизма и разрабатываются предложения по их устранению.

Ключевые слова. органы внутренних дел, социально-правовая защита сотрудников, административно-правовое обеспечение, административно-правовой механизм, социальные гарантии, государственная служба, правовое регулирование.

Annotation. The article analyzes the administrative-legal provision of the social-legal protection of internal affairs personnel in the unity of its concept, normative-legal basis and mechanism elements. Scholarly approaches are summarized, the problems of the current mechanism are identified the fragmentation of normative regulation, gaps in the procedure for realizing rights, and insufficient control – and proposals for their elimination are developed.

Keywords. internal affairs bodies, social-legal protection of personnel, administrative-legal provision, administrative-legal mechanism, social guarantees, public service, legal regulation.

Huquq-tartibotni ta'minlash, jamoat xavfsizligini saqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi davlat vazifalarining samaradorligi, avvalo, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, fidoyiligi va ijtimoiy himoya darajasiga bog‘liq. Jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilayotgan xodimning munosib ijtimoiy-huquqiy kafolatlarga ega bo‘lishi huquqiy davlat qurishning asosiy talablaridan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, davlat o‘z xodimidan yuqori mas'uliyat va sidqidillik bilan xizmat qilishni talab etar ekan, evaziga ularga barqaror ijtimoiy kafolatlar va ishonchli huquqiy himoyani ta'minlashi shart.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmoni bilan xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish hamda maishiy sharoitlarini yaxshilash ustuvor vazifa sifatida belgilandi [1].

Ushbu himoyaning asosini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil etadi. Unda inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat ekani, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot va mehnat huquqlari mustahkamlangan, 2023-yilgi tahrirda esa davlatning ijtimoiy yo‘nalishi va inson qadr-qimmati kafolatlari yanada kengaytirildi. 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun [2] xodimlarning huquqiy maqomi hamda ijtimoiy himoya kafolatlarining umumiy doirasini belgilaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” [3] ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolari sog‘lig‘ini saqlash, uy-joy bilan ta'minlash, oliy va o‘rta maxsus ta'lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tavsiyanoma berish, shahar yo‘lovchi transportidan va shaxsiy transportdan xizmat safarlarida foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, xodimlarga xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida tan jarohati olgan (yetkazilgan) yoki halok bo‘lgan (vafot etgan)da bir martalik nafaqa tayinlash, pensiya va nafaqa tayinlash tartibini belgilaydi.

Shu bilan birga, amaldagi normativ-huquqiy bazaning sezilarli darajada rivojlantirilganligiga qaramay, xodimlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni ta'minlovchi ma'muriy-huquqiy mexanizmlar hali hanuz tizimli takomillashtirishga muhtoj: tegishli normalarning ko‘plab hujjatlar bo‘ylab tarqoqligi, ularni amalga oshirish tartiblaridagi bo‘shliqlar hamda ijro ustidan nazoratning yetarli emasligi xodimlarning qonunda kafolatlangan huquqlaridan amalda to‘liq foydalanishini qiyinlashtirmoqda.

Mazkur masala ma'muriy huquq fanida, asosan, ma'muriy-huquqiy tartibga solish va ta'minlash obyekti sifatida o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchilarning qarashlarini shartli ravishda xodimning maxsus huquqiy maqomini asoslovchi, ijtimoiy himoyani ma'muriy-huquqiy ta'minlash mexanizmini tahlil qiluvchi hamda sohadagi muammolarni yorituvchi yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Xususan, D.N. Baxraxning yondashuviga ko‘ra, davlat xizmatchisining maqomi maxsus ma'muriy-huquqiy maqomdir [4].

Bu qarash ichki ishlar organlari xodimini umumiy mehnat yoki fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti emas, balki maxsus maqomga ega davlat xizmatchisi sifatida tahlil qilishga asos beradi. Y.N. Starilov esa xizmat huquqini ma'muriy huquqning tarkibiy qismi sifatida asoslab, davlat xizmatiga oid munosabatlarni alohida oʻrganish zaruratini koʻrsatgan [5].

E.T. Xojiyev davlat xizmatchisiga quyidagicha ta'rif beradi: “Davlat xizmatchisi – davlat organlari vakolatlarini bajarishni ta'minlash boʻyicha muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs” [6]. Olimning ta'kidlashicha, davlat organi bilan xizmatchi oʻrtasida oʻzaro huquq va majburiyatlarni yuzaga keltiruvchi davlat-xizmati munosabatlari vujudga keladi, davlat “xizmatchining huquq va manfaatlarini oʻrnatadi va ta'minlaydi, ijtimoiy-huquqiy kafolatlar, javobgarlik, pul mablagʻi bilan ta'minlash kabi majburiyatlarga ega boʻladi”. Ushbu yondashuv xodimni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni davlatning faol ma'muriy-huquqiy majburiyati sifatida asoslaydi.

Bevosita mavzuga oid tadqiqotlarda P.A. Mixaylyuk esa ma'muriy-huquqiy mexanizmni huquqiy, tashkiliy va moliyaviy vositalarning yaxlit tizimi sifatida talqin qilib, “ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning ma'muriy-huquqiy mexanizmi huquqiy, tashkiliy va moliyaviy vositalar tizimidan iboratdir” deb ta'riflaydi [7]. Y.V. Pavlova politsiya xodimining huquqiy va ijtimoiy himoyasini yagona ma'muriy-huquqiy tartibga solish obyekti sifatida baholab, bu ikki yoʻnalishni oʻzaro uzviy bogʻliqlikda koʻrib chiqadi [8], K.Y. Zayseva huquqiy himoyaning mohiyatini “politsiya xodimlarini huquqiy himoya qilish normativ-huquqiy, boshqaruv va tashkiliy choralar majmuini qoʻllashni taqozo etadi” deya izohlaydi [9], S.P. Matveev va T.A. Matveeva esa ijtimoiy himoyaning huquqiy tabiatini aniqlash zarurligini ta'kidlab, uni ma'muriy-huquqiy tartibga solishdagi muammolarga e'tibor qaratadi [10].

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirib shuni ta'kidlash mumkinki, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ma'muriy-huquqiy ta'minlash xodimning maxsus davlat xizmatchisi sifatidagi huquqiy maqomidan kelib chiqadi. Mazkur tizim xodimning qonuniy manfaatlari, xizmat xavfsizligi, ijtimoiy kafolatlari hamda shikoyat qilish va nazorat mexanizmlarini ta'minlovchi normativ-huquqiy, tashkiliy-boshqaruv va protsessual vositalar majmuini oʻz ichiga oladi.

Bu ta'rif oʻz ichiga ikki oʻzaro bogʻliq unsurni “xodim va uning oila a'zolarining moddiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoyani (pul ta'minoti, uy-joy, tibbiy va sanatoriy-kurort xizmatlari, pensiya va sugʻurta ta'minoti, imtiyoz hamda kompensatsiyalar) va xodimning xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan uning hayoti, sogʻligʻi, sha'ni hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi huquqiy himoyani” qamrab oladi, bunda moddiy kafolatlar huquqiy mexanizmlar orqali roʻyobga chiqariladi, huquqiy himoya esa xodimning ijtimoiy maqomini mustahkamlaydi.

“Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida”gi qonunga asosan qabul qilingan qonun osti hujjatlarida mustahkamlangan kafolatlar amalda ma'muriy-huquqiy mexanizm orqali roʻyobga chiqariladi. Bu mexanizm bir necha oʻzaro bogʻliq unsurlardan tashkil topadi: normativ tartibga solish – ijtimoiy kafolatlarning mazmunini va ularni olish shartlarini belgilovchi qoidalar majmui; tashkiliy-boshqaruv unsuri – himoyani amalga oshirishga mas'ul vakolatli organlar va tuzilmalar, jumladan IIV hamda uning hududiy boʻlinmalari,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tegishli kadrlar va moliya xizmatlari faoliyati; xodimning huquqidan foydalanish tartibi, ya'ni murojaat qilish, hujjatlarni taqdim etish, qaror qabul qilish muddatlari va navbatni yuritishning oshkoraligi (masalan, uy-joy masalasida elektron navbat); nazorat va kuzatuv unsuri – kafolatlarning oʻz vaqtida va toʻliq amalga oshirilishi ustidan idoraviy, vedomstvodan tashqari hamda jamoatchilik nazorati; nihoyat, yuridik javobgarlik unsuri – xodimning ijtimoiy huquqlarini buzgan mansabdor shaxslarning javobgarligini belgilovchi normalar. Ushbu unsurlarning uygʻunlashgan faoliyati mexanizmning samaradorligini belgilaydi, biror unsurdagi boʻshliq (masalan, jarayonning noaniqligi yoki nazoratning sustligi) esa butun tizimning samarasini pasaytiradi.

Amaldagi mexanizmning tahlili qator muammolar mavjudligini koʻrsatadi. Avvalo, normativ tartibga solishning tarqoqligi kuzatiladi: ijtimoiy-huquqiy himoyaga oid normalar qonun, farmon, qaror va idoraviy nizomlar boʻylab taqsimlangan. Normalarning turli yuridik kuchga ega hujjatlarda tarqoqligi ularni qoʻllashda takroriylik va normalararo nomuvofiqlik xavfini yuzaga keltiradi. Shuningdek, ayrim kafolatlarni roʻyobga chiqarish tartibida boʻshliqlar hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

Bundan tashqari, kafolatlar ijrosi ustidan nazorat mexanizmi yetarli darajada tizimlashtirilmagan – ijro monitoringi va xodimlarning qoniqish darajasini baholash indikatorlari toʻliq joriy etilmagan, ilmiy-nazariy jihatdan esa “ijtimoiy-huquqiy himoya” tushunchasining qonunchilikdagi yagona va aniq ta'rifi mavjud emasligi atama bir xilligiga salbiy ta'sir koʻrsatmoqda.

Bu kabi muammolarni hal etishda xorijiy tajriba katta ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni koʻrsatadiki, koʻplab davlatlarda huquq-tartibot organlari xodimlarining ijtimoiy kafolatlari alohida, maxsus qonun doirasida yaxlit tizimlashtirilgan boʻlib, bunday yondashuv normalarning tarqoqligini bartaraf etadi, kafolatlarning doirasini shaffof belgilaydi va ularni amalga oshirish tartibini yagona hujjatda mujassamlashtiradi. Xodim uchun oʻz huquqlari koʻlamini oson anglash va ularni roʻyobga chiqarish yoʻlini oldindan bilish imkoniyati ushbu tajribaning muhim ustunligidir. Ayni paytda, xorijiy tajribani milliy sharoitga tatbiq etishda uni mexanik koʻchirish emas, balki Oʻzbekistonning huquqiy tizimi va islohot mantigʻiga uygʻunlashtirish alohida ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, birinchidan, qonunchilikda “xodimni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish” tushunchasining yagona normativ ta'rifini mustahkamlash va uning tarkibiy unsurlarini aniq belgilash; ikkinchidan, ijtimoiy kafolatlarga oid tarqoq normalarni yagona tizimli hujjatda kodifikatsiya yoki konsolidatsiya yoʻli bilan jamlash orqali huquqni qoʻllash amaliyotini soddalashtirish; uchinchidan, huquqlarni amalga oshirish jarayonlarini batafsil va yagona tartibda reglamentlash; toʻrtinchidan, kafolatlar ijrosi ustidan nazorat mexanizmini kuchaytirish, ya'ni ijro monitoringi indikatorlari va xodimlarning qoniqish darajasini baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarni amalga oshirish xodimlarning ijtimoiy himoyalanganlik darajasini oshirishga, kafolatlarni roʻyobga chiqarishdagi ishonchlilikni ta'minlashga va pirovardida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni // Elektron manba: https://lex.uz/docs/3027843

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ni tasdiqlash haqida 354-son qarori// Elektron manba: https://lex.uz/docs/6093393

4. Бахрах Д.Н. Административное право: учебник. М.,2004 // Электрон манба: https://www.booksite.ru/fulltext/bah/rah/adm

5. Старилов Ю.Н. Государственная служба и служебное право: учебное пособие. М.: НОРМА: ИНФРА-М, 2015. –240 с.

6. Xojiyev E.T. Davlat xizmati. T., 2004. –B.17.

7. Михайлюк П.А. Административно-правовое регулирование социальной защиты сотрудников органов внутренних дел: дис. ... канд. юрид. наук. –М.,2006. С.217.

8. Павлова Е.В. Правовая и социальная защита сотрудника полиции как объект административно-правового регулирования // Государственная служба и кадры. 2020 // Электрон манба: https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-i-sotsialnaya-zaschita-sotrudnika-politsii-kak-obekt-administrativno-pravovogo-regulirovaniya.

9. Зайцева К.Ю. Гарантии правовой и социальной защиты сотрудников полиции // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2024. №1-3 (88) // Электрон манба: https://cyberleninka.ru/article/n/garantii-pravovoy-i-sotsialnoy-zaschity-sotrudnikov-politsii.

10. Матвеев С.П., Матвеева Т.А. Социальная защита сотрудников органов внутренних дел: проблемы административно-правового регулирования // Электрон манба: https://journals.vsu.ru/law/en/article/view/13719/13739